

RAVISH SO‘Z TURKUMINING MA’NOVIY GURUHLARI HAQIDA

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: So‘z turkumlari ichida o‘zgarmasligi bilan boshqa so‘z turkumlaridan farq qiladi. Ravish so‘z turkumining o‘ziga xos xususiyatlari va va guruhlari haqida ma’lumot berildi. Ravishlarga ma’no guruhlariga kiruvchi ravishlarga misollar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, ravish, holat ravishi, payt ravishi, o‘rin ravishi, miqdor-daraja ravishi, sabab-maqсад ravishi.

Bugungi kunda har bir til o‘z kelajagini o‘ylashi kerak bo‘lgan bir davrda yashayapmiz. Negaki, ko‘pchilik rivojlangan davlatlarda hattoki, do‘konlarga chiqib o‘zlarichi uchun kerakli bo‘lgan narsalarni ham olish uchun borishmaydi. Internetda ko‘pchili videolarni ko‘ramiz imloviy xatolar juda ko‘p. Tabiiyki, kitob mutolaa qilmaydigan insonlar bir so‘zni shunday deb tasavvur qiladi. Imloni ham garammatikani ham to‘g‘irlash uchun o‘quvchi va talabalarni kitob mutolaa qilishga jalb qilishimiz kerak. Kitob mutolasi orqali o‘quvchilarning til boyligining oshishiga, imlo xatolariga yo‘l qo‘ymasligiga erishamiz. Agar o‘quvchilarni kitob mutolaasiga jalb qilsak, o‘zbek tilini o‘qitish osonlashadi.

Ravish hamisha tilshunoslikning muammoli masalasidan bo‘lib kelgan. Uni o‘rgangan olim V. V. Vinogradov “mustaqil so‘zning hech bir guruhiga sig‘may qolgan so‘z ravish turkumiga yig‘ilgan” deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma’no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g‘arb tilshunosligi ravshni ma’no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo‘limgan belgi - o‘zgarmaslik belgisi bilan boshqa birortasiga xos bo‘limgan belgi - o‘zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi.¹ Ravish boshqa so‘z turkumlaridan o‘zgarmasligi bilan farq qiladi.

Ravish leksema asosan hollovchi vazifasida keladi; ravish leksemashakl ravish leksemaga ‘hollovchi’ sintaktik semasini qo‘sib hosil qilinadi: “ravish leksema + ‘hollovchi’ sintaktik semasi = ravish leksemashakl”² Gavhar unga bir qaradi-yu, darrov ko‘zlarini yashirdi. Muhammad Jamol kuchli, samimiy olqishlarga kamtarona ta’zim etib, joyiga o‘tirgach, Sharif Sulaymon o‘z nutqini boshlab yubordi. Kechga yaqin Gulnorning ruhi ancha yengillashdi, issig‘i

¹ R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent – 2009

² Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006

ozaydi, nafas olishi ham *asta-asta* durustlashdi. Quyosh *sekin-asta* ko'tarilib, qalın shoxlar orasidan mo'ralay boshladi. *Bultur* ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi. Adolat har kuni *kechqurun* Usmonjonni ko'rish orzusida uyiga oshiqar, uni sog'inar, lekin buni tan olishga o'z-o'zidan uyalardi. Alimjonning yuragi *tez-tez urib*, badani qizishdi.

Ayrim ravish leksemalar ot leksemaga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi, shunga ko'ra bunday ravish leksemaga 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi: "ravish leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = ravish leksemashakl". Bunday qolip asli — sifat leksema uchun birlamchi, ravish leksema uchun esa ikkilamchi:³ Nodirbek *yana ikki oydan so'ng* o'qishining tugashini va qaytishini aytib xayrashdi. Katta o'g'limning uyi *sal yiroqqa* ko'chirilsa, hammasi yaxshi bo'ladi. *Ko'pgina* mikroblar tozalikka e'tibor bermaslikdan kelib chiqadi. Salima ayaning o'g'li *ko'p yillardan beri* qaytmadi.

Ayrim ravish leksemalar kesim vazifasida ham ishlataladi.⁴ Uning do'stlari *ko'p*.

Ravish so'z turkumi ish-harakatning bajarilish tarsi, payti, o'rni, miqdordaraja hamda belgilarini bildiruvchi va qanday? qachon? qayer? qancha? kabi savollarga javob bo'luvchi so'z turkumi hisoblanadi. Ravishning beshta ma'noviy guruhi mavjud. Bulardan birinchisi holat ravishi hisoblanadi. Masalan: -Saidqo'zi, sen gapirganda, Sherbek *jim* o'tirgan edi, - kim luqma tashladi. Durdona mакtabga borguncha *yayov* ketdi. -*Chindan* so'zlayman, Anvar! – dedi Sultonali. Arabboy ko'pchilik kulgisidan bir oz izza tortdi. Lekin u ba'zi birovlarday umum kulgisiga *majburan* taslim bo'lib jilmaydi. "Dadasi qaytib kelsa, Nigorani tanirmikin" – *tasodifan* tug'ilgan bu so'roq Nigorani haya jonga soldi. G'isht zinadan Zulfizar *arang* chiqib kelar, u bemajol, rangida rang qolmagan edi.

Ravishning ikkinchi ma'noviy guruhi payt ravishi hisoblanadi. Singlisi bo'lsa, birov bilan betma-bet kelib so'zlashganida ham, ko'zini *hamisha* bir nuqtadan uzmas edi. Sidiqjon garchi *hanuz* og'zi bemaza va boshi og'irroq bo'lsa ham.. ko'ngli ko'tarilib, ta'bi ochilganidanmi, juda yengil tortdi. Ekinni erta ekkan hosilini eta o'rарi.

Ravishning uchinchi turi o'rin ravishi hisoblanadi. O'zi pulemyotini sudrab, *olg'a* emaklab ketdi. Birorta tanish ko'rinnmagach, o'zi *ichkariga* kirmoqchi bo'lgan. *Olsda* adirlardagi neft vishkalarida chiroqlar yiltiraydi. Ikki yoshning hozirgi holini *yaqindan* tomosha qilmoqchi bo'lgan tussiz bir yulduz ko'k sahnining yerga yaqinroq qismiga uchib tushdi.

³ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006

⁴ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006

Ravish so'z turkumining to'rtinchi turi miqdor-daraja ravishi hisoblanadi. Me'mor boshqa shogirdlaridan ko'ra ham unga – (G'avvosga) o'zgacha iltifot-u ehtirom ko'rsatar, chunki u yosh jihatidan *sa/* kattaroq edi. Anvar o'z tengi bolalar bilan *oz* aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab - kulmas edi. Mahalliy aholidan allanarsalarni bir necha tuxum va *picha* yoqqa almashtirib oladi.

Ravishning beshinchi turi sabab-maqsad ravishi hisoblanadi. Orombaxsh, salqin bog'da sayr etib yurgan ikki yosh yurak bus afar ham tunda ushshiriga *atayin* piyoda jo'nashdi. Men *jo'rttaga* ba'zi gaplarni teskarilikka olib ko'rsam ham, u churq etmaydir. Mahkam oftobdan ko'zini qisib, unga qaradi-da, javob o'rniqa qo'lini yoydi va *noiloj* kulimsiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
3. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – "Talqin" - 2005

